




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

09 fevral, 2026 yil

SQB, NBU, AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (20 oktabr 2025 yildan 09 fevral 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, faisllarda)



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 5,776% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 5,716% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,707-6,076% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 5,974% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 5,866% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,964-6,401% gacha o'zgarib turdi.



AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,205% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,138% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,131-6,717% gacha o'zgarib turdi.



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,055% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 5,963% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,963% – 6,317% gacha o'zgarib turdi.


2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,204% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 9,154% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 9,154% – 9,422% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,63-3,75% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,69% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u pasayib 3,65% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 1,999% (3 oylik) va 2,152% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,152% (6 oylik) va 2,2% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 642,5 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 111,5 million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 12 242 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib 12 303 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 2,49% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




9.02.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Kapitalbank* bankda qayd etilgan – 12 305 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 12 310 – 12 380 so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Hamkorbank* da qayd etilgan – 12 190 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 12 180 – 12 160 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



USD/RUB haftaning oxiriga kelib mustahkamlandi

Haftaning boshida AQSh dollarining rublga nisbatan kursi 77 rubl atrofida saqlanib turdi va sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi. Savdolar tinch muhitda, yuqori volatilliksiz o'tdi. Haftaning oxiriga kelib esa dollar kursi biroz oshib, 77,7 rubl darajasiga yetdi. Bu holat xorijiy valyutaga bo'lgan talabning ortishi bilan izohlanadi. Shuningdek, rubl kursiga tashqi noaniqlik omillari ham ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, bozorda keskin o'zgarishlar qayd etilmadi — harakatlar mo'tadil xarakterga ega bo'ldi. Umuman olganda, kurs odatiy diapazon doirasida qoldi.


RUB-YUAN dinamikasi



Rubl yuanga nisbatan biroz zaiflashdi

Joriy hafta davomida rublning yuanga nisbatan kursi kamtarona o'sish dinamikasini namoyish etdi. Haftaning boshida kurs barqaror bo'lib, taxminan 10,7 darajasida saqlanib turdi. Haftaning o'rtalarida kuzatilgan bir nechta mayda tebranishlar umumiy holatga jiddiy ta'sir ko'rsatmadi. Haftaning oxiriga kelib esa RUB/CNY juftligi 10,9 darajasigacha ko'tarildi. Ushbu o'sish tashqi omillar fonida yuanga bo'lgan talabning ortishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, bozor tinch holatda qoldi va keskin harakatlar kuzatilmadi. Umuman olganda, hafta mo'tadil barqarorlik doirasida o'tdi, yuanning yengil ustunligi bilan.

EUR-USD dinamikasi



Yevro tebrandi, dollar esa o'z pozitsiyalarini saqlab qoldi

Joriy hafta davomida yevroning dollarga nisbatan kursi tor diapazonda tebranishlarni namoyon etdi. Haftaning boshida kurs 1,1874 darajasidan yuqoriroq bo'lib, asta-sekin pasaya boshladi. Haftaning o'rtalariga kelib, juftlik taxminan 1,1838 darajasida barqarorlashdi. Haftaning oxirida esa yevro biroz tiklanib, 1,1826 darajasiga yetdi. Harakatning asosiy omillari AQSh va yevrozona bo'yicha kutilayotgan iqtisodiy ma'lumotlar bilan bog'liq bo'ldi. Bozorda keskin silkinishlar kuzatilmadi. Umuman olganda, hafta tinch o'tdi va dollar tomoni yengil ustunlikka ega bo'ldi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil




Tarixiy pasayishdan so'ng oltin narxlar keskin oshdi



Narxlarning pasayishidan keyin oltin qiymati qayta tiklana boshladi. 3-fevral kuni oltin narxi bir untsiya uchun 4 960,4 AQSh dollarigacha ko'tarildi. Geosiyosiy vaziyat va moliya bozorlaridagi beqarorlik fonida narxlar kelgusida ham bosqichma-bosqich o'sishi kutilmoqda. Qimmatbaho metallar investorlar uchun ishonchli aktiv sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.


Narxlarning o'sishiga ta'sir qilgan asosiy omillar: AQSh dollarining mo'tadil darajada zaiflashuvi, geosiyosiy keskinlik (AQSh va Eron o'rtasida) hamda markaziy banklarning pul-kredit siyosatini qat'iy lashtirishdagi murakkabliklar hisoblanadi.



Fevral oyining boshida Brent nefti narxlar: pasayish, o'sish va beqarorlik



2026-yil 2–6 fevral kunlari Brent markali neft narxlar bir barrel uchun 66,3–69,46 AQSh dollari oralig'ida tebrandi. 2 fevral kuni Yaqin Sharqdagi geosiyosiy xatarlarning susayishi, AQSh dollarining mustahkamlanishi hamda iliq ob-havo prognozlarida fonida kotirovkalar keskin pasaydi. Keyingi kunlarda neft narxlar qisman tiklanib, 4 fevral kuni 69,46 dollargacha yetdi, biroq 5 fevralda 67,55 dollargacha korreksiya qilindi. 6 fevral kuni esa barqaror talab va investorlar faolligi ta'sirida narx yana oshib, 68,05 dollarni tashkil etdi. Umuman olganda, bozor geosiyosiy vaziyat, valyuta tebranishlari va mavsumiy talabga sezgir bo'lib qolmoqda hamda yuqori volatillikni saqlab turibdi.



Gaz bozori: barqaror va sokin dinamika



2026-yil yanvar oyining so'nggi kunlarida gaz narxlar nisbatan barqaror bo'lib qoldi va bir megavatt-soat uchun 47,5–48,9 AQSh dollari oralig'ida tebrandi. Eng past narx 28-yanvar kuni — 47,5 AQSh dollari, eng yuqori ko'rsatkich esa 26-yanvar kuni — 48,9 AQSh dollari darajasida qayd etildi. Umuman olganda, bozor keskin tebranishlarsiz, o'rtacha volatillikni namoyon etdi, bu esa Yevropa gaz bozori bilan ishlovchi kompaniyalar va investorlar uchun oldindan bashorat qilinadigan va nisbatan barqaror sharoitlarni yaratmoqda.

Yangiliklar

Germaniyada yirik sanoat anjumani — Frankfurt Digital Finance 2026 konferensiyasi bo'lib o'tmoqda. Tadbir doirasida banklar va fintex kompaniyalari moliyaviy texnologiyalar hamda kapital bozorlarining kelajkdagi rivojlanish yo'nalishlarini muhokama qilmoqda.



2026-yil 23-yanvar holatiga ko'ra O'zboq'iston Respublikasi Milliy banki bazaviy foiz stavkasini 18,00% darajasida o'zgarishsiz qoldirdi. Ushbu qaror mamlakatda kreditlash shartlari, omonatlar bo'yicha daromadlilik hamda bank sektorining umumiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



Turkiya banklari 2025-yilda qat'iy kredit siyosati va yuqori inflyatsiya darajasiga qaramay, foydaning sezilarli o'sishini namoyish etdi — yil yakunlariga ko'ra taxminan +43 %. Bank sektorining umumiy sof foydasi qariyb 940 mlrd turk lirasi (21,6 mlrd AQSh dollari)ni tashkil etdi. Bu natija kreditlash bo'yicha cheklovlar va yuqori foiz stavkalari saqlanib qolgan sharoitda ham erishildi.



Buyuk Britaniyaning eng yirik banklaridan biri — Lloyds Banking Group korporativ mijozlarni kreditlash hajmini kengaytirish hamda xalqaro faoliyatini kuchaytirishni rejalashtirmoqda. Bank kapital talabchanroq segmentlardagi o'z pozitsiyalarini mustahkamlashni ko'zlamoqda, biroq buni ehtiyotkor va muvozanatli yondashuv asosida amalga oshirishni maqsad qilgan.

